SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING O‘SMIR IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONIGA TA’SIRI.

Ibragimova Shahnoza Gapparovna,
Qo‘qon davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi v/b dotsent
shahnozaqdpi@gmail.com

Annotatsiya: O‘smirlik davri shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bosqich hisoblanadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim, muloqot va kundalik faoliyatga tobora chuqurroq kirib kelishi o‘smirlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, ularning real ijtimoiy munosabatlariga ham muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada o‘smirlarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan ortiqcha foydalanishining ularning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, shaxsiy rivojlanish, mas’uliyat, ijtimoiy me’yor, emotsional zo‘riqish, empatiya, ko‘nikma, xulq-atvor strategiyalari.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi va keng miqyosda ommalashuvi inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining keng qo‘llanilishi ta’lim olish, axborotni izlash va qayta ishlash, ijodiy faoliyatni tashkil etish, kommunikativ jarayonlarni amalga oshirish hamda kundalik muammolarni hal etish usullarining sezilarli darajada transformatsiyalanishiga olib kelmoqda. Hozirgi davrda o‘smirlar ham sun’iy intellekt asosida faoliyat yurituvchi chatbotlar, ta’limiy platformalar, tavsiya tizimlari, virtual yordamchilar va boshqa raqamli vositalardan tobora faol foydalanayotgan ijtimoiy guruhlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘smirlik davri shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida muhim va o‘ziga xos bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsiy identifikatsiyaning shakllanishi, mustaqillikka intilish, tengdoshlar bilan ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va rivojlantirish, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, emotsional holatlarni boshqarish hamda jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash kabi jarayonlar jadallashadi. Shu nuqtai nazardan, o‘smirning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi ijtimoiy muhit omillari, xususan, zamonaviy raqamli muhitning mazmuni va xususiyatlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli texnologiyalar o‘smirning axborot olish, muloqot qilish, ta’lim olish, bo‘sh vaqtini tashkil etish hamda ijtimoiy tajribani egallash jarayonlarining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Mazkur texnologiyalarning psixologik va ijtimoiy ta’siri, avvalo, ulardan foydalanish maqsadi, foydalanish davomiyligi va intensivligi, foydalanilayotgan axborot mazmuni, ota-ona yoki pedagogik nazorat darajasi, sun’iy intellektdan foydalanishning real ijtimoiy faoliyat, bevosita insonlararo muloqot va boshqa

rivojlantiruvchi faoliyat turlari bilan nisbatiga bog‘liq. Muammoning asosiy jihati sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish faktining o‘zida emas, ulardan me’yoridan ortiq, nazoratsiz yoki maqsadsiz foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik va ijtimoiy oqibatlarni aniqlash bilan bog‘liq. O‘smirlarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, shaxsiy rivojlanishi va real ijtimoiy munosabatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘smirlik davrining yetakchi tadqiqotchilaridan biri D.I. Feldshteyn mazkur yosh bosqichida kuzatiladigan xulq-atvor xususiyatlarini bir qator psixologik va ijtimoiy omillar bilan izohlaydi. Uning fikricha, o‘smirlar yangilik va noodatiy tajribalarni sinab ko‘rishga nisbatan yuqori darajada moyillik namoyon etishlari, ehtimoliy xavfxatarlarni yetarlicha to‘liq baholashda qiyinchiliklarga duch kelishlari, tengdoshlar guruhining ta’siriga sezgir bo‘lishlari hamda ota-ona nazoratidan nisbatan mustaqillikka intilishlari bilan tavsiflanadi. Mazkur xususiyatlar o‘smir shaxsining rivojlanishida muhim psixologik ahamiyatga ega bo‘lib, uning mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy tajribani egallash, o‘zligini anglash va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish jarayonlarini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smirlik davri shaxsning tashqi ijtimoiy nazoratga nisbatan qaramlikdan bosqichma-bosqich mustaqillikka o‘tishi, individual hayotiy tajribani faol o‘zlashtirishi va ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z mavqeini belgilashi bilan xarakterlanadigan muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. O‘smirlik davrida ijtimoiy me’yorlarning o‘zlashtirilishi shaxs sotsializatsiyasining o‘ziga xos va muhim bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur davr birlamchi sotsializatsiyaning yakunlanishi hamda ikkilamchi sotsializatsiyaning boshlanishi bilan tavsiflanadi. Aynan ushbu bosqichda o‘smirning ijtimoiy tajribani egallashi, mavjud ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni anglab yetishi hamda ularni shaxsiy xulq-atvor tizimiga integratsiya qilishi jadallashadi. Sotsializatsiya shaxsning ijtimoiy muhit va mavjud ijtimoiy sharoitlar ta’sirida shakllanishi, rivojlanishi va o‘zgarishini ifodalovchi uzluksiz jarayondir. Mazkur jarayon davomida shaxsda yangi ijtimoiy funksiyalar va rollar shakllanib, ularning mazmuni hamda amalga oshirish mexanizmlari rivojlanib boradi. Sotsializatsiya inson tomonidan jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va xulq-atvor standartlarining o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Natijada shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimida faol subyekt sifatida ishtirok etish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘zini rivojlantirish hamda jamiyatdagi o‘ziga xos ijtimoiy mavqeini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘plab tadqiqotchilar ijtimoiy-psixologik moslashuvni shaxsning sotsializatsiya jarayonida faoliyat yurituvchi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etadilar. Ijtimoiy-psixologik moslashuvni turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va o‘zaro ta’sirlashuv jarayonlariga asoslangan murakkab, ko‘p qirrali hamda dinamik jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mazkur jarayon natijasida individning yangi ijtimoiymadaniy muhitga moslashuvi ta’minlanib, unda mazmunan yangilangan va ijobiy xarakterga ega bo‘lgan ijtimoiy identiklik shakllanadi. V.V. Gritsenko ijtimoiy-psixologik moslashuvning mohiyatini

barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning o‘ziga xos dialektik uyg‘unligida ko‘radi. Ushbu uyg‘unlik, bir tomondan, shaxsning mavjud individual-psixologik xususiyatlari va ijtimoiy identikligini saqlab qolishini, ikkinchi tomondan esa, yangi ijtimoiy-madaniy muhitning talablari hamda sharoitlariga muvofiq ravishda ularni qayta tashkil etish va moslashtirishini nazarda tutadi. Mazkur jarayon insonning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuv usullarida, xulq-atvor strategiyalarida hamda moslashuvning turli darajalarida namoyon bo‘luvchi adaptiv mexanizmlarning faoliyatida o‘z aksini topadi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida o‘smir kattalarga xos vazifalarni hal qilish zaruratini anglaydi va oldin shakllangan identikligi qayta ko‘rib chiqila boshlaydi. Bu jarayon o‘smirning atrofdagilar nazarida qanday ko‘rinishi hamda bu tasvir uning o‘z-o‘zi haqidagi tasavvurlari bilan qanchalik mos kelishi yoki zidligi haqida ichki kechinmalarni yuzaga keltiradi. E.V.Morodenko ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning muvaffaqiyatli kechishiga yordam beruvchi obyektiv va subyektiv mezonlarni ajratib ko‘rsatgan. Obyektiv mezonlar shaxsning jamiyat talablariga mos faoliyati va xulqini, jamoada o‘z o‘rnini topa bilish, hurmat va ishonch qozonish, ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, nizolardan chetda turish yoki ularni konstruktiv tarzda hal eta olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Subyektiv mezonlar esa uning ichki qoniqish, muvozanat va o‘zini qulay his etish darajasini ifodalaydi. S.T.Posoxova ta’rifiga ko‘ra, moslashuv - bu shaxsning o‘zini namoyon etish mexanizmi bo‘lib, u atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni ichki sharoitlar orqali qayta ishlaydi va o‘zini hamda tashqi olamni anglashning yangi usullarini yaratadi. G.Selye adaptatsiya jarayonlarini tadqiq qilgan va ularni stress hamda emotsional zo‘riqish bilan chambarchas bog‘lagan. Uning fikricha, ijtimoiy keskinlikning yuzaga kelishi tabiiy hol bo‘lib, bu ommaviy adaptatsiya sindromi ko’rinishida namoyon bo‘ladi va insonning fiziologik, psixologik hamda ijtimoiy-psixologik moslashuvi yoki ko‘p hollarda moslashuvning buzilishi - dezadaptatsiya darajasini ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan me’yoridan ortiq va nazoratsiz foydalanishning ehtimoliy xavflaridan biri real insonlararo muloqotning qisqarishi bilan bog‘liq. O‘smir o‘z savollariga tezkor, qulay va individual ehtiyojlariga moslashtirilgan javoblarni taqdim etuvchi virtual tizimlarga muntazam murojaat qilishi natijasida real ijtimoiy munosabatlarda shakllanadigan sabr-toqat, faol tinglash, murosaga kelish, suhbatdoshning emotsional holatini anglash va kommunikativ vaziyatga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini tartibga solish kabi ko‘nikmalarni amaliy jihatdan yetarli darajada mashq qilmasligi mumkin. Sun’iy intellekt bilan o‘zaro ta’sirning ortishi o‘smirning real ijtimoiy muhitdagi kommunikativ tajribasi bilan muvozanatda bo‘lishi muhimdir. Yuzma-yuz kommunikatsiya ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligi ehtimoli mavjud. Real insonlararo muloqot jarayonida kommunikativ mazmun faqat verbal axborot bilan cheklanmay, balki suhbatdoshning ovoz ohangi, yuz ifodasi, tana tili, imo-ishoralari va emotsional holati kabi ko‘plab noverbal signallarni idrok etish va talqin qilishni ham talab etadi. Sun’iy intellekt tizimlari bilan amalga oshiriladigan muloqotda esa mazkur murakkab ijtimoiy signallarning aksariyati bevosita ishtirok etmaydi. Natijada o‘smirning tabiiy ijtimoiy vaziyatlarda kommunikativ signallarni anglash, ularga

mos javob qaytarish va o‘z xulqatvorini vaziyat talablariga muvofiq tartibga solish bo‘yicha amaliy tajribasi cheklanishi mumkin. Sun’iy intellektdan ortiqcha foydalanish ijtimoiy izolyatsiya xavfini kuchaytiruvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin. Agar o‘smir bo‘sh vaqtining sezilarli qismini virtual muhitda o‘tkazsa, tengdoshlari bilan bevosita muloqot qilish, jamoaviy faoliyatlarda ishtirok etish, oilaviy munosabatlarga vaqt ajratish hamda real ijtimoiy tajribani egallash imkoniyatlari qisqarishi ehtimoli ortadi. Uzoq muddat davomida bunday nomutanosiblik ijtimoiy aloqalar doirasining torayishi, real muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayishi va subyektiv yolg‘izlik hissining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur ta’sirni sun’iy intellektdan foydalanishning bevosita va muqarrar natijasi sifatida emas, undan foydalanish intensivligi va real ijtimoiy faoliyatning qisqarishi o‘rtasidagi nisbat kontekstida baholash maqsadga muvofiq. Sun’iy intellekt vositalaridan muntazam ravishda tayyor javob olishga tayanish o‘smirning mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Murakkab masalalarni hal etishda doimiy ravishda tashqi raqamli yordamga murojaat qilish muammoni mustaqil tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ularning afzallik va cheklovlarini taqqoslash hamda asoslangan shaxsiy xulosaga kelish jarayonlarining yetarli darajada faollashmasligiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Mazkur masala, ayniqsa, ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan bilim va ko‘nikmalarni mustaqil shakllantirish vositasi sifatida emas, o‘quv topshiriqlariga tayyor javob olish vositasi sifatida foydalanilganda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektdan foydalanish o‘smirning kognitiv faolligini almashtirmasligi, balki uni qo‘llabquvvatlashi va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Sun’iy intellekt tizimlari bilan emotsional bog‘liqlikning shakllanish ehtimoli ham alohida e’tiborni talab etadi. Ayrim o‘smirlar virtual tizim bilan muloqotni real insonlar bilan muloqotga nisbatan qulayroq va kamroq psixologik zo‘riqish talab qiluvchi jarayon sifatida qabul qilishlari mumkin. Sun’iy intellektning tezkor javob berishi, doimiy foydalanish imkoniyatining mavjudligi va foydalanuvchini bevosita baholamasligi ayrim holatlarda uni psixologik jihatdan qulay kommunikativ vositaga aylantirishi mumkin. Biroq bunday muloqot o‘zaro empatiya, mas’uliyat, o‘zaro majburiyat, real emotsional kechinmalar va ijtimoiy tajribaga asoslangan insonlararo munosabatlarning to‘laqonli o‘rnini bosa olmaydi. Sun’iy intellekt bilan virtual muloqotning ortib borishi o‘smirning real ijtimoiy aloqalarini siqib chiqarmasligi, ular bilan muvozanatli tarzda uyg‘unlashishi zarur.

Xulosa. Sun’iy intellekt o‘smirlarning hayotida tobora muhim o‘rin egallayotgan texnologik vosita bo‘lib, uning ta’siri ikki tomonlama xususiyatga ega. Oqilona foydalanilganda ta’lim samaradorligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, axborot izlashni yengillashtirish va individual ta’lim ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Biroq sun’iy intellektdan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish o‘smirlarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Real muloqotning kamayishi, ijtimoiy izolyatsiya, kommunikativ ko‘nikmalarning yetarli darajada rivojlanmasligi, mustaqil fikrlashning zaiflashishi va virtual muhitga psixologik bog‘liqlik kabi xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Посохова С.Т. Психология адаптирующейся личности: субъектный подход. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. — 240 с.

2.Гриценко В.В. Этническая идентичность и социально-психологическая адаптация // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Философия. Психология. Педагогика. — 2006.

3. Реан, А. А. Психология личности. Социализация, поведение, общение. — СанктПетербург: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2004.

4. Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности (формы, механизмы и стратегия).-М.: Ереван, 1988. - 237с.

5.Sh.G.Ibragimova. Qo’llanma. Stress psixologiyasi.Toshkent-2024y

6. Ismoilova, N. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva ; – Toshkent : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 168

7. E.G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi”. Darslik Toshkent-2020 y